

ISLOMIY TARIQATLAR BIRLIGI

Boxodirov Ixtiyor Boxodir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti (PhD)

ixtiyorbekboxodirov92@gmail.com +998946678687

Annotatsiya: *Maqolada islom olamida zohidlik harakati bilan boshlangan so'fiylik tariqatlari, ularning maqsadi, mohiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tariqatlar uslubining o'xshash va farqli jihatlari yoritib berilgan. Yassaviylik, mavlaviylik, naqshbandiylik, malomatiylik va boshqa tariqatlarning mazmunidagi umumiyliklar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *islom, tariqat, Yassaviy, Naqshband, Malomatiya, xalifalik, komil inson, tasavvuf.*

Tarix guvohlik beradiki, buyuk shaxslar, ilm egalari, olimlar islom rivojini, xalqlar ma'naviy- ma'rifiy hayotining asosiy mayoqlari vazifasini bajarishgan. Ayniqsa, islom dinining VII asrdan keying ravnaqi, takomili, kengayishi aynan ularning nomi bilan bog'liq. Payg'ambarimiz vafotlaridan so'ng islom dunyosini boshqarish xalifalar qo'l ostiga o'tadi. Abu Bakr Siddiq o'zining saxovati, payg'ambarlarga xos sodiqlik va hilm bilan mamlakatni boshqarib katta natijalarga erishildi. Umar (r.r.) hukmronligi davrida hokimiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalarda ulkan yutuqlarga erishildi. Umar (r.a.) ta'rixda o'zining adolati bilan nom qozondi. Bu haqida XII asrda ilk turkiy tariqat sohibi, shayx Ahmad Yassaviy shunday ta'rifni ham berib o'tib, uni boshqa podshohlarga ibrat, o'rnak qilib ko'rsatadi:

Nohaq ishni etmagan adolatlik Umardir,
Haqiqatni xo'b bilgan adolatlik Umardir.
O'g'lin chorlab kelturgan, darra urib o'lturgan,
Odil bo'lib yo'l so'rg'on adolatlik Umardir⁸.

Xalifa Umardan so'ng hokimiyat Usmon(r.a.) qo'liga o'tadi va ayni shu zamondan boshlab mamlakatda hokimiyat, boyluk, mansab, dunyotalablar o'rtasida kurash kuchayib ketadi. Bu haqida Y.E.Bertels "So'fizm va tasavvuf adabiyoti" asarida ham qayd etib o'tadi: "Xalifa Usmon davrida salaflarning chekinishi, mol dunyo orttirish, qarindoshchilik, ularni yuqori mansablarga olish avj oladi. Natijada Ali (r.a.)ning hukmronligi ham shu kurashlar girdobida o'tadi.

Xalq asta-sekin diniy-halol hayot kechirishdan dunyoviy-nopok hayot tarziga kira boshlaydi. Bundan norozi bo'lgan payg'ambarimiz sunnatlari, Qur'oni karimni o'zlariga dastur-ul amal deb bilgan taqvodorlar, tobeinlar, islomparvar ziyolilar orasida ilk zohidlik harakati – dunyoni tashlab, oxirat uchun uzlatga chekinish holatlari avj ola boshladi.

Umaviylar va ulardan keyin hokimiyat tepasida turgan Abbosiylar sulolalari davrida xalqni islomga, iymonga qaytarish maqsadida qator tariqatlar maydonga keladi. Ularning yo'nalishi, uslubi, e'tibori nuqtayi nazardan har xil bo'lishiga qaramasdan mohiyatan bitta Allohga qaytish, halol hayot kechirish, "Komil inson" bo'lish g'oyasi zaminida shakllangan.

⁸ Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oni. Turkiy adabiyot durdonalari 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 12.

Bu yo'lda Yassaviy tariqati “zikri jahriya”, Naqshbandiya “zikri xufiya”, Malomatiya “o'zni malomat qilish”, Mavlaviylik “aylanma darveshlik”, Rifoilylik “ruhiy tajriba⁹” kabi usullardan foydalangan. Sanab o'tilgan tariqatlarning uslubi va mohiyatidan qat'iy nazar ularning kelib chiqishi Yusuf Hamadoniy va uning muridlariga borib taqaladi.

Demak, ularning uslubida ham kesishgan nuqtalar juda ko'p. Masalan, Ahmad Yassaviy tariqati arkonlari 6 ta bo'lib oltinchi arkon sifatida tilga olingan “Tafakkuri mudaqqad”, Naqshbandiy tariqatining to'rt arkonining dastlabki ikkitasi: “Xush dar dam” va “Nazar bar qadam¹⁰”ga mazmunan tutashadi.

Bahouddin Naqshbandning “Zikri xufiya” usuli Malomatiylik tariqatining “Botinan Haq, zohiran xalq bilan¹¹” tamoyiliga monand. Yassaviylikda mavjud bo'lgan “Zikri jahriya” ya'ni ovoz chiqarib baralla Allohni yod etish marosimi Jaloliddin Rumiy asos solgan “Mavlaviylik” tariqatining “samo uyg'unligida musiqiy zikri jahriya” usuli va Xilvatiya tariqatining “Zohiriy zikr” usullari bir-biri bilan mohiyatan bir.

Shunday ekan, tariqatlarni biri tarkidunyolik, uzlatni targ'ib etgan, biri, qattiq mehnatga undagan, biri dunyo lazzatiga boshlagan, biri zohidlikka chorlagan deb bir tomonlama noto'g'ri talqin va tashviq qilish buyuk Islom dini nufuzi, Qur'oni Karim va Hadisi shariflarning ahamiyati, mutafakkir olimlarimizning komillik rutbasi, qadriyatlarimiz mohiyatiga nisbatan haqoratdan boshqa narsa bo'lmaydi. Shayx Sa'diy Sheroziy o'zining “Guliston” nomli asarida shunday deydi: “Tariqat ishi tasbeh tutib, jundan eski libos kiyib, namoz o'qish bilan bo'lmaydi, tariqat – xalqning xizmatidan boshqa narsa emas¹²”. Bu qanday xizmat bu ma'naviy, ruhiy, axloqiy xizmat.

Markaziy Osiyodagi tariqatlarning barchasi ushbu mazmuni o'zida to'la mujassam etgani holda Allohga yetish, uning tajallisidan bahramand bo'lishni maqsad qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg'oniy. Turkiy adabiyot durdonalari 4-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 12.
2. <https://docx.uz/document/movorounnahir-tasavuf-ulamolari-va-tariqatlar-6f486605?lang=uz>
3. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: 1996. – B. 43.
4. Yazdonov Z. Tasavvuf tariqatlarida malomatiylik tamoyillarining namoyon bo'lish masalalari. «инновации в системе образования: новые горизонты для молодежи в науке, технологиях и бизнесе» в традиционная международная научно-практическая онлайн-конференция 14-15 июня, 2024 года. – B. 692.
5. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 19.

⁹ <https://docx.uz/document/movorounnahir-tasavuf-ulamolari-va-tariqatlar-6f486605?lang=uz>

¹⁰ Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – B. 43.

¹¹ Yazdonov Z. Tasavvuf tariqatlarida malomatiylik tamoyillarining namoyon bo'lish masalalari. «инновации в системе образования: новые горизонты для молодежи в науке, технологиях и бизнесе» в традиционная международная научно-практическая онлайн-конференция 14-15 июня, 2024 года. – B. 692.

¹² Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 19.